



Yashirin iqtisodiyot va uning iqtisodiyotga ta'siri

Raxmatullayev Murodbek Maqsud o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs talabasi

raxmatullayemurodbek545@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotning shakllanish sabablari, uning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri, shuningdek, uning bartaraf etish usullari ko'rib chiqiladi. Yashirin iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari va uning iqtisodiyotga salbiy ta'sirlarini tahlil qilish orqali, unga qarshi kurashishning ijobiy yo'llari o'rgniladi. Yashirin iqtisodiyotning iqtisodiy tizimdagi o'rni va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Yashirin iqtisodiyot, davlat byudjeti, soliq to'lovchilar, zamonaviy bozor iqtisodiyoti, soliq qonunchiligi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida yashirin iqtisodiyot ya'ni norasmiy iqtisodiyot deyarli barcha davlatlarda uchraydigan murakkab hodisa hisoblanadi. U iqtisodiy faoliyatning rasmiy statistika va davlat nazoratidan chetda qoladigan qismini o'z ichiga oladi. Yashirin iqtisodiyotning mavjudligi bir tomondan aholining daromad topish imkoniyatlarini kengaytirs, ikkinchi tomondan davlat moliyasi, davlat byudjeti, ijtimoiy himoya tizimi va sog'lom raqobat muhitiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillar davomida globallashuv, raqamli iqtisodiyot va soliq islohotlari jarayonlari yashirin iqtisodiyot masalasini yanada dolzarb qilib qo'ydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda norasmiy bandlikning katta ko'rsatkichi iqtisodiy o'sish sifatiga yomon ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi yashirin iqtisodiyot tushunchasini ilmiy jihatdan yoritish, uning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish hamda muammoni kamaytirish yo'llarini asoslab berishdan iborat.

Yashirin iqtisodiyot turli darajalarda har qanday mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu hodisaning mohiyati haqida ko'plab fikrlar mavjud. Ko'pgina olimlar yashirin iqtisodiyot huquqiy normalarni buzadigan va turli jinoyatlarni keltirib chiqaradigan iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismi ekanini ta'kidlashadi. Boshqa olimlar yashirin iqtisodiyot rasmiy statistikada moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, iste'mol qilish, almashish va tarqatish jarayonlari hisobga



olinmagan deb hisoblashadi. Yashirin iqtisodiyot iqtisodiyotning bir qismi bo'lib, u davlat organlari tomonidan tartibga solinmaydi yoki kuzatilmaydi va ko'pincha iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yashirin iqtisodiyot - davlat nazorati va nazoratidan tashqarida amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi. Bu hodisa murakkab va to'liq o'rganilmagan, ammo keng tarqalgan va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi, shuningdek, yashirin iqtisodiyot soliq daromadidan qochish mumkin bo'lgan reproduktiv sektorga ta'sir ko'rsatadi. Yashirin iqtisodiyot o'z belgilariga ega bo'lib ular quyidagilardan (iqtisodiy foyda olish uchun hech qanday soliqqa tortilmaydigan yoki qisman soliq yukidan mahrum bo'lgan daromad olish va noqonuniy faoliyat natijasida nazoratsiz daromad olish imkoniyati mavjud) iborat.

Yashirin iqtisodiyot, birinchi navbatda, savdo-sotiq faoliyati va shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlash, shuningdek, ro'yxatga olish ma'lumotlarini buzish hisoblanadi. Ko'p hollarda yashirin hisob-kitoblar xorijiy valyutada naqd shaklda amalga oshiriladi, ammo yangi sxemalar yaratilishi bilanoq ular yashirin va naqdsiz operatsiyalarga aylantiriladi.

Yashirin iqtisodiyot murakkab ko'p bosqichli hodisa, uning turlari va shakllari xilma xil. Yashirin iqtisodiyot maqsadi, faoliyati va iqtisodiy ijtimoiy oqibatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

1. Jinoiy iqtisodiy faoliyat. Bu mutlaqo man qilingan, qonun yo'li bilan ta'qib etiladigan ishlar bilan shug'ullanish, ya'ni narkobiznes, qurol biznesi va hokazolar.

2. G'ayriqonuniy, g'ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab o'zlashtirib olish, ya'ni o'g'irlik, bosqinchilik, reket, poraxo'rlik.

3. Ikkilamchi iqtisodiyot – kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat etilmagan va davlat ro'yxatidan o'tmagan iqtisodiy faoliyat. Ularga yashirin tadbirkorlik, 1- 2 va 5-10 kishi band bo'lgan yashirin kichik korxonalar faoliyati kiradi. Yashirin tadbirkorlik xizmat ko'rsatish, qurilish, savdo, kiyim-kechak ishlab chiqarishda keng tarqalgan.

4. Rasman ruxsat etilgan faoliyat bilan birga qo'shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo'l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo'shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni yashirin sotish.

5. Mansabni suiiste'mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xatti-harakatlar. Bular jumlasiga davlat idoralaridagi poraxo'rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalanib subsidiyalar olishni kiritish mumkin.

6. Qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat – bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos



bo‘lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo‘shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va shu turdagi ishlardir.

O‘zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyot YaIMning uchdan bir qismini tashkil etmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonda kuzatilmaydigan (uy xo‘jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati hamda yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo‘shilgan qiymati 433 679,8 mlrd so‘mni tashkil etdi va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,3 % ga yetdi. Taqqoslash uchun: birinchi chorakda bu ko‘rsatkich 106,8 trln so‘mni yoki YIMning 32 % ini tashkil etgan. Shu tariqa, kuzatilmaydigan sektor ulushining 1,3 % punktiga biroz o‘shishi kuzatildi, buni iqtisodiy faoliyatdagi mavsumiy tebranishlar bilan izohlash mumkin.

Shu bilan birga, kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi quyidagicha:

O‘zbekistonda sohalar bo‘yicha kuzatilmaydigan iqtisod ulushi:	
Qishloq,o‘rmon va baliq xo‘jaligi	69.4 %
Xizmatlar	36.2 %
Qurilish	35.0 %
Sanoat	10.2 %

Ko‘pchilik mutaxassislarga ma’lumki, O‘zbekiston yashirin iqtisodiyoti yuqori bo‘lgan davlatlar guruhiga kiritilgan. Mutaxassislarning fikricha, yalpi ichki mahsulotda yashirin iqtisodiyotning ulushi qariyb 50 foizni tashkil etadi. Mahalliy sanoatda norasmiy sektorning ulushi esa yaqin vaqtgacha 20 foizdan oshdi. Mamlakat rahbariyati iqtisodiyotda yashirin sektor ulushini kamaytirish yo‘lidan bordi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalqaro tashkilotlar ekspertlarini jalb etgan holda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

2020-yil 30-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Farmon doirasida soliq organlari faoliyati institutsional jihatdan takomillashtirildi, ularning vakolatlari



aniqlashtirildi va zamonaviy boshqaruv tamoyillari joriy etildi. Raqamli texnologiyalar, jumladan onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron hisob-fakturalar va ma'lumotlar bazalarining integratsiyasi kengaytirildi, bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini berdi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki yashirin iqtisodiyotni to'liq bartaraf etish juda qiyin masala, lekin qisqartirish imkonsiz emas. Buning uchun yaxshi o'ylangan, bosqichma-bosqich amalga oshirsa bo'ladigan aniq reja ishlab chiqish kerak. Bunday rejaga erishishda albatta birinchi navbatda aholining iqtisodiy, moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun soliq tizimini takomillashtirish, iqtisodiy shaffoflikni oshirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2020 yildagi PF-6098-son. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi (2000–2005)
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (<https://stat.uz>)
4. Najmiddinov D., Abduraximov M., SIU an'anaviy xalqaro konferensiyasi iqtisodiyot fanlari bo'yicha maqolalar to'lami-I (193-196-bet)
5. Karimov I. "O'zbekiston iqtisodiyoti va yashirin iqtisodiyot" (2015).